ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

YOMG‘IR SUVIDAN FOYDALANIB SUG‘ORISH MURAKKAB HUDUDLARDA “GREEN ZONE” LARNI TASHKIL QILISH

G‘.R.Mirzaqulov, Z.SH.Tojimatov, S.S.Xolmamatov

Annotasiya : “GREEN ZONE” loyhasini tashkil etib sug‘orish murakkab bo‘lgan hududlarni o‘zgartirish shu bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksportini o‘sishga erishiladi. Loyha orqali suv sarfi kamayadi.

Kalit so‘zi: GREEN ZONE, Yomg‘ir suvi, yog‘ingarchilik, qishloq xo‘jaligi maqsuloti.


Аннотация: Создание проекта **«ЗЕЛЕНАЯ ЗОНА»** позволит изменить территории, где орошение затруднено, и в то же время будет достигнуто увеличение экспорта сельскохозяйственной продукции. Проект позволит снизить потребление воды.

Ключевые слова: ЗЕЛЕНАЯ ЗОНА, Дождевая вода, осадки, сельскохозяйственная продукция.

Annotation: The creation of the **"GREEN ZONE"** project will change the areas where irrigation is difficult, and at the same time, the increase in the export of agricultural products will be achieved. The project will reduce water consumption.

Key words: GREEN ZONE, Rainwater, precipitation, agricultural products.

Bugungi kunda yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi 50-60 yil davomida birgina Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Statistikaga ko‘ra, O‘zbekiston suv bilan bog‘liq bo‘lgan muammodan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida 164 mamlakat orasida 25-o‘rinni egallagan. Bu «yuqori» darajada suv tanqisligiga uchragan davlatlar qatoridamiz deganidir.



1-diogramma. Respublika bo‘yicha foydalaniladigan suv miqdori


Keyingi yillarda, global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Foydalanilgan o‘rtacha yillik suv miqdori 51-53 milliard kub metrni, jumladan, 97,2 foizi daryo va soylardan, 1,9 foizi kollektor tarmoqlaridan, 0,9 foizi esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan.

Loyihaning amaliy hamiyati: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi 6024-sonli farmonida ko‘rsatilganidek: Sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish; Suv ta’minoti past darajada bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish; Sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish; Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste’molini 25 foizga kamaytirish; Barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga “Smart Water” (“Aqlli suv”) suv o‘lchash va nazorat qilish qurilmalari o‘rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish; 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish; Qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish belgilangan. Xususan yurtimiz bo‘ylab yog‘ingarchilikning o‘rtacha yillik hajmi 186 mm.ni, adir va tog‘oldi qismlarida 300-550 mm.ni tashkil etadi. Tog‘li hududlarda esa yanada yuqori 800-900 mm.gacha yetib, 70-90 kungacha yog‘ingarchilik kuzatiladi. Hisob-kitobga ko‘ra, 1 kvadrat metr tom sathidan o‘rta hisobda 186 litrga teng yomg‘ir suvini to‘plash mumkin.

Yomg‘ir suvidan foydalanib, bir kishi kuniga o‘rtacha 71 litrgacha ichimlik suvni tejashi mumkin. Hozir, bir kishining kunlik o‘rtacha suv sarfi 130 litrni tashkil etadi. Agar biz hozir toza ichimlik suv sarflayotgan ishlab chiqarish jarayonlari, maishiy, uy-xo‘jaligi, avtomobillarni yuvish kabilar yog‘ingarchilik suvi hisobidan bo‘lsa, mamlakat bo‘yicha sezilarli miqdorda toza ichimlik suv tejaladi, misol uchun Turkiyada 2 ming kvadrat metrdan ortiq ko‘p qavatli uylar hamda yangi qurilayotgan binolarda yomg‘ir suvini yig‘ish tartibi belgilangan. Germaniyada Frankfurt aeroportida yig‘ilgan yomg‘ir suvi aeroportning ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarining 60 foizini sug‘orish va texnik suv o‘rnini qoplash imkonini beradi. Avstraliyada esa yomg‘ir suvi shaharlarda 9 foiz, shahardan tashqarida 63 foiz suvga bo‘lgan talabni qondiradi.

Yomg‘ir suvlarini to‘plash odamlarning suvga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Dunyo bo‘ylab olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yigirma yil ichida aholi sonining ortishi turli sohalarda suvga bo‘lgan talabning o‘sishi va suv iste‘molining oshishiga olib keldi. Yomg‘ir suvidan sug‘orish, ichimlik, baliqchilik, chorvachilik, maishiy xizmatlar, suzish va qurilish kabi turli xil maqsadlarda foydalanish imkoniyati bor. Filtrlangan va tozalangan yomg‘ir suvini sovutish tizimlari, ishlab chiqarish jarayonlari, hojatxonalarni yuvish, kiyimlarni yuvish va tozalash kabi ichimlikka yaroqsiz maishiy xizmatlarga ishlatishimiz mumkin. Bu ham suvni tejashga hissa qo‘shadi. Shuningdek, yomg‘ir suvini yig‘ish chorva mollarini suv bilan ta‘minlashda quruq davrda qo‘shimcha suv manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Yomg‘ir suvini yig‘ish - bu yomg‘ir suvini yerga tushirishdan ko‘ra, keyinchalik foydalanish uchun yig‘ish va saqlashning oddiy va barqaror usuli. Bu shahar suv ta’minotiga bo‘lgan talabni kamaytirish va suv to‘lovlarini tejashning ajoyib usulidir. Shu sababdan yomg‘ir suvini yig‘ib inovatsion uslubdagi “GREEN ZONE” issiqxonalarni tashkil etib undan eksportga yo‘naltirilgan mevalar yetishtiriladi.



1-rasm. Issiqxonani yomg‘ir suvini yig‘ib olish qismlari

“GREEN ZONE” issiqxonalarida sug‘orish, tomchilatish yo‘li bilan sug‘oriladi. Tomchilatib sug‘orishda - suvni maxsus quvurlar yordamida bevosita o‘simliklarning ildizlari atrofiga kichik

me’yorlarda tomizib sug‘oriladi, mehnat sarfi kamayadi. “GREEN ZONE” loyihasi orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi, qishloq xo‘jaligi maqsulotlari eksportini o‘sishiga erishiladi, shuningdek sug‘orish qiyin bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilga n adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Agroekologiya (A. Ergashev, T. Ergashev) 2006-yil
3. Ekologiya (A. To‘xtayev) 2003-yil
4. Ekologiya (Xalilova. R) 2020-yil